

## SHOM LAHJASINING LEKSIK XUSUSIYATLARI VA UNING ZAMONAVIY ARAB TILIGA TA'SIRI

### LEXICAL FEATURES OF THE LEVANTINE DIALECT AND ITS INFLUENCE ON MODERN ARABIC

**Erkinova Azizaxon Bahodirjon qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Yusupov A.A.**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shom lahjasining zamonaviy arab tiliga, xususan adabiy arab tiliga ko'rsatgan leksik va fonetik ta'siri tahlil qilinadi. Media makoni kengayib borayotgan bir davrda Suriya va Livan kontentining ijtimoiy tarmoqlarda ommalashuvi natijasida yoshlar nutqida Shomcha iboralar tez sur'atda tarqalayotgani kuzatiladi. Tadqiqotda televideniye, internet platformalar va migratsiya jarayonlari kabi omillar lahjaning keng yoyilishining asosiy sababchilari sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, Shom lahjasidan arab adabiy nutqiga kirib kelgan ayrim iboralar misol tariqasida tahlil qilinib, ushbu jarayonning arab tili rivojiga ta'siri ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Maqola zamonaviy arab tilidagi lahja-fus'ha munosabatlari va lingvistik o'zgarishlarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Shom lahjasi, zamonaviy arab tili, adabiy arab tili, leksik xususiyatlar, fonetik yengillik, talaffuz qilinishi.

**Аннотация.** В данной статье анализируется лексическое и фонетическое влияние левантийского диалекта на современный арабский язык, особенно на литературный арабский. В эпоху широкого распространения медиа-контента наблюдается стремительное распространение выражений шамского диалекта в речи молодежи благодаря популярности сирийских и ливанских телепередач и платформ социальных сетей. В исследовании рассматриваются такие факторы, как телевидение, интернет-платформы и миграционные процессы, которые способствовали широкому распространению диалекта. Кроме того, проанализированы некоторые выражения, вошедшие из шамского диалекта в литературный арабский язык, и показано их влияние на развитие арабского языка с научной точки зрения. Статья служит важным источником для изучения взаимодействия диалекта и фусхи, а также для понимания лингвистических изменений в современном арабском языке.

**Ключевые слова:** Шамский диалект, современный арабский язык, литературный арабский язык, лексические особенности, фонетическая лёгкость, произношение.

**Annotation.** This article analyzes the lexical and phonetic influence of the Levantine dialect on the modern Arabic language, particularly on Modern Standard Arabic. In an era of widespread media content, expressions from the Shami dialect are rapidly spreading among young people, largely due to the popularity of Syrian and Lebanese television programs and social media platforms. The study examines factors

such as television, online platforms, and migration processes that have contributed to the widespread dissemination of the dialect. Furthermore, some expressions that have entered Modern Standard Arabic from the Shami dialect are analyzed, highlighting their impact on the development of the Arabic language from a scholarly perspective. The article serves as an important resource for studying the interaction between dialect and Fusha and understanding linguistic changes in contemporary Arabic.

**Keywords:** Levantine dialect, Modern Arabic, Classical Arabic, lexical features, phonetic ease, pronunciation.

Arab tili juda qadimiy, murakkab va boy tuzulishga ega bo'lgan til sifatida tan olingan. Shuningdek, dunyodagi eng ko'p gapiriladigan besh tilning biri bo'lib, undan 422 milliondan ortiq kishilar ona tili sifatida foydalanadi.<sup>23</sup> Bu ko'p sonli aholi o'rtasida umumiy til bo'lish sezilarli farqlar yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Yozma rasmiy til va og'zaki so'zlashuv tili o'rtasida bu farqlar yaqqol aks etadi. Zamonaviy standart arab tili (MSA) qadimgi klassik arab tiliga tayangan bo'lib, hukumat ishlari, yangiliklar, kitoblar va ta'limda rasmiy til sifatida qo'llaniladi. Adabiy arab dunyosining turli millat vakillari o'rtasida umumiy aloqa tili vazifasini bajaradi. Ammo og'zaki so'zlashuv tili "Lahjalar" butun arab dunyosida katta farqlar bilan qo'llaniladi. Ijtimoiy tarmoqlarning tez sur'atlarda ommalashishi natijasida arab lahjalari yozma onlayn muloqotga ham kirib kela boshladi. Arab lahjalari asosan geografik joylashuvga ko'ra besh yirik guruhga bo'linadi: Mag'rib (Liviya, Tunis, Jazoir, Marokash), Misr (Misr va Sudanning ayrim hududlari), Shom yoki Levant deb ham yuritiladi (Iordaniya, Livan, Falastin, Suriya), Iroq (Iroq) va Fors ko'rfazi lahjalari (Qatar, Quvayt, Bahrayn, BAA, Saudiya Arabistoni, Ummon, Yaman).<sup>24</sup>

Shom lahjasining tarqalgan hududlari:

1. Suriya Arab Respublikasi - Damashq, Halab, Latakiya, Homs.
2. Livan Respublikasi - Bayrut va uning atroflari.
3. Iordaniya Hoshimiylar Qirolligi - Amman va shimoliy viloyatlar.
4. Falastin davlati - Quddus, G'arbiy sohil, G'azo sektorining ayrim hududlari.

Ushbu jamoalar o'rtasidagi yaqin tarixiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar Shom lahjasining umumiy shakllarini mustahkamlab kelgan. Shom lahjasidagi asosiy belgilar fonetik yengilligi, tovushlarning muloyim talaffuzi, iboralarning ixcham shakldaligi bilan ajralib turadi. Masalan: " "harfi ko'p hollarda " "tarzida: " - "قلب "ت" esa <sup>25</sup> "ث" "أوي"; "قوي" "ألب" yoki "tarzida talaffuz qil "تالت" "ثالث" - "تالت" "ثالث" nadi: "أستاذ" - "أستاذ" harfi " "jharfi o'rnida: " "أخذ" "أخذ" talaffuz qilinadi.

So'z oxirida kelgan " "talaffuz etilmaydi: " "أوراء" - "أوراء" ba'zida o'rtasida kelsa ham talaffuz etilmaydi " "تاكل" - "تاكل" yoki " "أغلى" aylantiriladi: " "دقائق" - "دقائق".<sup>27</sup>

<sup>23</sup> 2013-Sweden-Kathrein Abu Kwaik. A corpus of Levantine Arabic Dialects. Gothenburg University

<sup>24</sup> 2013-Sweden-Kathrein Abu Kwaik. A corpus of Levantine Arabic Dialects. Gothenburg University

<sup>25</sup> 1964-Washington-Mark W. Cowell. A Reference Grammar of Syrian Arabic. Georgetown University Press

<sup>26</sup> 2007-J. Eliahy. Speaking Arabic. Minevra Publishing House

<sup>27</sup> 1992-USA-Rajaa Chouairi. Shou fi ma fi. Yale University Press



Ikkinchisi: Fe'llarda shaxs-son qo'shimchalaridan oldin hozirgi-davomiy zamonda " "qo'shib talaffuz qilinadi, faqat 1-shaxs ko'plikda " "qo'shiladi:

) (أجيب - keltiraman); (أجيب - keltirasan)<sup>31</sup>.

Hozirgi kelasi zamon oldidan esa " "yoki " "prefiksi qo'shiladi." "son va jinsga qarab o'zgarmaydi, hozirgi zamon fe'li ham " "yoki " "prefiksisiz ishlatiladi: ( (أجيب - keltiraman), (أجيب - keltiraman). Birinchi va ikkinchi shaxs uchun ( (أجيب - keltiraman) ham ishlatiladi, lekin uchinchi shaxs uchun ( (أجيب - keltiraman) ishlatilishi kengroq.<sup>32</sup>

Ko'p hollarda fe'llar " "holatida kelishi ko'p uchraydi. Bunga misol ravishda, " "jami jumlasini " "holatida ko'proq ishlatilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Quyida Shom lahjasida keng tarqalgan ba'zi so'zlar keltiriladi: (أيضاً) شو كمان (ما) جوا (داخل) برا (خارج) مش (ليس) مصاري (نقود) عشان (لأن) بلاش (مجانى أو لا تفعل) شوية (قليل).

Shom lahjasidagi iboralar ham so'zlar kabi muloqotga juda mos va ifodali hisoblanadi, quyida keng tarqalganlari:

- keyin gaplashamiz نخلص نحكي بعدين
- nima fikrdasan? شو رأيك؟
- soat necha? قدش الساعة؟
- nima xohlaysan? شو بدك؟
- qachon ishga ketasan? امتى رايح على الشغل؟

Shom lahjasida keng tarqalgan, omma orasida ko'p ishlatiladigan ba'zida maqollar:

بطيختان بيد واحدة لا تحملان - "بطيختين بايد واحدة ما بينحملوا"

"أ" "q" yuqori aytilgandek "عند البطون ضاعت العقول" - "عند البطون ضاعت العقول" holatida yengil talaffuz etiladi.

"الذي يخلع ثيابه يبرد" - "اللي بيخلع ثيابه يبرد"

"أ" holatida yengil talaffuz etilganidek "q" yuqorida aytilganidek "يصلع من الحبة قبة" - "بيعمل من الحبة قبة"

"من شب على شيء شاب عليه" - "مين شب على شيء، شب عليه"

Iboralar va maqollar aynan bu lahjada emas, boshqa turdagi lahjalarda yoki adabiy arab tilida ham shunday shaklda ishlatiladi, biroq talaffuz va bir qancha so'zlar bilan farqlanishi mumkin.

Shom lahjasining arab mamlakatlariga keng tarqalishi va ular orasida mashhurligining asosiy sabablaridan biri - Suriya va Livan seriallarining ko'p tomoshabinlarga ega ekanligi. "Bab al-Hara"(2006-yilda birinchi qismi), "Al-Hayba"(2017), "Nihayat Rajul Shujaa" (1994) kabi seriallar arab dunyosida katta shuhrat qozondi. Natijada, ko'plab Shom iborolari umumarab auditoriyasi tomonidan qabul qilindi. Arab yoshlari Shom lahjasini ijtimoiy tarmoqlardagi katta ko'lamli kontenti sababli asosiy muloqot vositasiga aylantirib ulgurishdi. Hattoki, adabiy arab tili nutqida ham Shom urg'usini qo'shib gapira boshlashdi. Bu jarayon quyidagi ta'sirlarni keltirib chiqardi: Adabiy arab matnlarida ham Shom iboralarini ko'rini

<sup>31</sup> 2007-J.Elihay. Speaking Arabic. Minevra Publishing House

<sup>32</sup> Leslie J. McLoughlin. Colloquial Arabic (Levantine)

boshladi. Yoshlar va umuman arab tilida soʻzlashuvchilar orasida "ش", "ليش", "خلص" kabi soʻzlar ommalashdi. Ba'zi teleboshlovchilar ham adabiy arab tili nutqiga Shom urgʻusini qoʻshib gapira boshladilar.

Bularning asosiy sababi sifatida Fayruz, Ziad Rahbani, Julia Butros kabi san'atkorlarning mashhurligi va aynan ularning qoʻshiqlari Shom lahjasida ekanligi ham ta'kidlanadi. Ijtimoiy migratsiya ham bu lahjaning keng tarqlishiga xizmat qildi. Urushlar sabab koʻplab bu lahja egalarining boshqa arab davlatlariga koʻchib oʻtishi, kundalik muloqotda lahjaning keng tarqalishiga olib keldi. Koʻhna arab tilini chuqur tushunmoqchi boʻlgan odam avvalo dialektini, jonli ogʻzaki arab tilini bilishi kerak — chunki ogʻzaki nutqda qadimiy sheʼr, maqol, rivoyat va diniy ishoralar juda koʻp.<sup>33</sup> Chunki ogʻzaki muloqat madaniyatga tez singish, haqiqiy muloqot imkoniyatini yaratib beruvchi asosiy omildir.

"Levantda bir kunlik safarda eshitiladigan barcha ishoralarni tushunish darajasiga yetgan talaba universitetdagi doktorlik darajasidan ham yuqoriga chiqadi",<sup>34</sup>-deydi, Buyuk Britaniya, Amerika Qoʻshma Shtatlarida hamda Arab dunyosidagi universitetlarda arab tilini oʻqitish bilan yaqindan shugʻullangan, Buyuk Britaniya malikasi va bir nechta bosh vazirlar uchun tarjimonlik qilgan, Lesli J.MakLauglin. Shunday ekan, lahjalarning adabiy arab tilining ajralmas bir qismi boʻlib, xalqlar orasidagi munosabatlarni yaqindan anglashimizga zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

- 1.2013-Sweden-Kathrein Abu Kwaik.A corpus of Levantine Arabic Dialects.Göteborg University
- 2.1964-Washington-Mark W.Cowell. A Reference Grammar of Syrian Arabic.Georgetown University Press
3. 2007-J.Elihay.Speaking Arabic.Minevra Publishing House
- 4.1964-Washington-Mark W.Cowell. A Reference Grammar of Syrian Arabic.Georgetown University Press
- 5.Leslie J.McLoughlin.Colloquial Arabic(Levantine)

<sup>33</sup> Leslie J.McLoughlin.Colloquial Arabic(Levantine)

<sup>34</sup> Leslie J.McLoughlin.Colloquial Arabic(Levantine)